

## Kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning xususiyatlari

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi Gumanitar va Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

**Podpolkovnik: Turayev Laziz Shokirovich**

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kursanti

**Xayrullayev Xurshid Saydirasul o'g'li**

**Axmedov Allayar Baxtiyarovich**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarda kompetensiya va uni rivojlantirishni tadqiq qilish, yoshlarda dastlabki harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kamol topishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** harbiy xizmatchilarda kompetensiya, uni rivojlantirishni tadqiq qilish uslublari, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik, harbiy xizmat, samarali moslashuv, burchga sodiqlik, kasbiy ong.

Bugungi kunda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borish talab etilmoqda. "Kompetentlik" (ingl. "competence" - "qobiliyat") - faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi. "Kompetentlik" pedagogik kategoriya sifatida ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik kategoriyasiga quyidagicha izoh keltirilgan. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini ko'zda tutadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, "kompetensiya" mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik: murakkab jarayonlarda, noaniq vazifalarni bajarishda, bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda, kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo'lishda yaqqol namoyon bo'ladi.

### KOMPETENSIYA HAQIDA TURLI OLIMLAR FIKRLARI

Kompetensiya – so'zi tarjimada "layoqatli", "munosib bo'lmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi

lotincha “competere” soʻzi asosida hosil boʻlgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi.

Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda kompetensiya va uni rivojlantirishni tadqiq qilish, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini shakllantirishdan iborat.

Albatta, harbiy xizmatchilarda kompetensiya ularning ushbu sohadan xabardorlik, layoqatligidan anglab olishimiz mumkin. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari bir-biri bilan uzviy bogʻliq jarayonlar hisoblanadi.

Kompetentlik insonning intellektual, shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy, hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi I.A.Zimnya va. A.V.Xutorskiy “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini quyidagicha ajratib olish mumkin deb hisoblaydi.

Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatleri uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, maʼlum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgizishidir. Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yigʻindisiga ega boʻlishi demakdir.

Harbiy xizmat – Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy harbiy majburiyatlarni va shartnoma asosida Qurolli Kuchlarda va Oʻzbekiston Respublikasining boshqa harbiy tuzilmalarida xizmatni bajarish boʻyicha davlat xizmatining alohida turidir.

### **Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:**

#### **1. Ijtimoiy kompetentlik** - ijtimoiy munosabatlarda faollik koʻrsatish

Koʻnikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subʼektlar bilan muloqotga kirisha olish.

#### **2. Maxsus kompetentlik** - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga

tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash. Ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik koʻzga tashlanadi.

Bugungi kun harbiy xizmatchilarida kompetensiya jarayoni quyidagi bosqichlarda shakllantiriladi:

1- bosqichda harbiy xizmatgacha boʻlgan davrda, dastlabki vatan ximoyachisi shaxsini shakllantirishga yoʻnaltirilgan bilim va koʻnikmalarni hosil qilishadi. Ushbu bosqichda oʻquvchi maktabgacha va maktab taʼlimi, aksariyat hollarda oliy taʼlim jarayonida ham harbiy-vatanparvarlik bilim va koʻnikmalarini shakllantiradi;

2- bosqich muddatli harbiy xizmat jarayonida, ushbu davrda vatan ximoyachisi oʻzining kasbiy kompetentligi va kompetensiya jarayonlarini shakllantirib boradi.

### **Kasbiy kompetentlik oʻzida quyidagi mazmuni ifodalaydi:**

**a) psixologik kompetentlik** - pedagogik jarayonda sogʻlom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va taʼlim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni oʻz vaqtida angelay olish va bartaraf eta olish;

**b) metodik kompetentlik** - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, taʼlim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini toʻgʻri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qoʻllay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qoʻllash;

**c) informatsion kompetentlik** - axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali maʼlumotlarni izlash, yigʻish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, oʻrinli, samarali foydalanish;

**d) kreativ kompetentlik** - pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, oʻzining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

**e) innovatsion kompetentlik** - pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

**f) kommunikativ kompetentlik** - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish;

**g) Shaxsiy kompetentlik** - izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

**h) Texnologik kompetentlik** - kasbiy-pedagogik ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

**i) Ekstremal kompetentlik** - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Shu maqsadda oliy harbiy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari o'qitish jarayonida harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan kamchilik va muammolarni quyidagilarda ifodalash mumkin:

- tinglovchi va kursantlarga o'z fani bo'yicha ta'lim berishda zamonaviy pedtexnologiyalarni samarali qo'llay olishi darajasini rivojlantirish;
- o'quv jarayonini faollashtirish hamda o'quv materiallarini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishish, tinglovchi va kursantlarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatish;
- shaxsiy tarkib bilan o'tkaziladigan konsultatsiyalar hamda harbiy-ilmiy jamiyat a'zolari ishlarining o'z vaqtida tashkillashtirilishi va samaradorligini qattiq nazoratga olish;
- o'quv jarayoni sifatini yanada oshirish choralarini ko'rish, tinglovchi va kursantlarning mustaqil tayyorgarlik darslarini qattiq nazoratga olish;
- mashg'ulotlar davomida tinglovchi va kursantlarning mustaqil fikrlash va o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'qitish jarayoniga qo'yilayotgan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda harbiy xizmatchilarning kasbiy bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini faoliyatga bog'lash va takomillashtirishga layoqatlilik darajasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning o'quv jarayonida kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha alohida ilmiy izlanishlar olib borilmaganligini inobatga olsak, Qurolli Kuchlar tizimida harbiy ta'lim-tarbiya yuzasidan mavjud muammolar, ya'ni harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish kabi masalalar ilmiy jihatdan aniqliklar kiritishni talab etadi.

Xulosa qilib aytsak: Bundan ko'rinib turibdiki, har bir bo'lajak harbiy xizmatchi o'z kasbiy kompetentligini anglab yetishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, o'zini- o'zi baholay olishi, ta'lim jarayonining jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlashi kerak. Qachonki harbiy xizmatchi o'zini to'g'ri va xolis baholay olsagina, u o'z sohasida yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi.

Ushbu fikrlardan ko'rinib turibdiki, kasbiy kompetentlik nafaqat harbiy xizmatda, balki boshqa mutaxassisliklarda ham muhim o'rin tutadi, lekin bizning asosiy yo'nalishimiz bo'lgan harbiy xizmat sohasida kasbiy kompetentlikni yuksak darajada egallash, bu orqali harbiy xizmat jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Shunday ekan, har bir ta'lim harbiy xizmatchi o'zining kompetensiyalarini to'g'ri ang'lay olishi va uni amaliyotda to'g'ri va maqsadli qo'llay olishi darkor.

Harbiy xizmatchilarda kompetensiyalarni shakllantirish va uni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Umumharbiy Nizomlar talablariga to'liq rioya etishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, har bir harbiy xizmatchida kasbiy mahorat

kasbiy ong, vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirish lozim. Kasbiy mahorat, kasbiy tajriba bevosita harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentlikning namoyon boʻlishi xamda kompetensiya rivojlanishi mahsulidir. Kasbiy kompetensiyaga ega harbiy xizmatchi: oʻz bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni oʻzlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va oʻz amaliy faoliyatida samarali qoʻllaydi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodlarini mukammal ravishda egallash harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshiradi, natijada harbiy xizmat samaradorligi taʼminlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi konisitutsiyasi Toshkent-2023.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari Toshkent-1996.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent-2023
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati.Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi.Toshkent-2006. – 73-b.
5. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. Oʻquv- metodik qoʻllanma. - T. “Sano-standart”, 2015. - 120 b.
6. Imamova Shafoat Mahmudovna. A Simulation Trainer’s Educational Competence In The Process Of Forming Students’ Professional Competence// International Journal On Integrated Education Volume 6, Issue 9, Sep- 2023
7. Imomova Shafoat Mahmudovna. Matematik tizimlarda talabalarning kasbiy kompetentligini imitasion-trenajyor asosida rivojlantirishning pedagogik shartlari // Ilm-fan va texnologiyalar №2(1), 2023, C. 19-23.
8. Imomova Shafoat Mahmudovna.Computer simulators in science//International conference bridge to science: research works September 10 - December 15, 2023. San Francisco, California.
9. Azizxoʻjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat. - T.: 2003. - 174 b.
10. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss...avtolyohai. - Toshkent: 2002. -22 b.